



JAHON VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Yahyoyeva Mohinur

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jahon va o‘zbek adabiyotida latifa janrining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Latifa xalq og‘zaki ijodining muhim janri sifatida jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni, inson xarakteridagi kamchiliklarni hamda axloqiy masalalarni yumor va kinoya orqali ifodalashi bilan ajralib turadi. Maqolada jahon adabiyotidagi Joha, Nasriddin Afandi kabi obrazlar hamda o‘zbek latifachiligining o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Shuningdek, latifa janrining tarbiyaviy ahamiyati va zamonaviy adabiyotdagi o‘rni ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Latifa, xalq og‘zaki ijodi, hajv, Nasriddin Afandi, Joha, yumor, kinoya, badiiy janr, ijtimoiy tanqid, o‘zbek adabiyoti, jahon adabiyoti.*

Latifa janri — xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va ommabop turlaridan biri bo‘lib, u qisqa, mazmunan ixcham, lekin chuqur ma’noga ega hajviy hikoya shaklida namoyon bo‘ladi. Latifalar orqali xalq hayotidagi illatlar, inson xarakteridagi kamchiliklar, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar yumor va kinoya bilan ochib beriladi. Jahon adabiyotida ham, o‘zbek adabiyotida ham latifa janri o‘zining sodda, ammo ta’sirchan ifoda vositasi sifatida muhim o‘rin egallaydi. Latifa (arabcha “latif” — nozik, nafis, yumshoq degan ma’noni bildiradi) qisqa hajmli nasriy janr bo‘lib, unda hayotiy voqea yoki holat kulgili, istehzoli tarzda tasvirlanadi.¹ Uning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

qisqalik va ixchamlik;

hajviy yo‘nalish;

¹ To‘rayev B. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.



kutilmagan yakun (kulminatsiya);

xalqona til va sodda ifoda;

ijtimoiy yoki axloqiy ma'no.

Latifalarda ko'pincha donolik, topqirlik, ayyorlik yoki ahmoqlik kabi insoniy sifatlar keskin kontrastda ko'rsatiladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida latifa janri XI asrdan keyin keng shakllangan va rivojlangan. O'zbek latifalarining asosiy timsoli Nasriddin Afandi bo'lib, u o'zining donoligi, hozirjavoblighi va tadbirkorligi bilan ajralib turadi. Quyida Afandi latifasini ko'ramiz:

Afandi bir kuni bozorga borsa, bir to'ti qushni juda qimmat narxga — 50 tilloga sotishayotgan ekan. Afandi hayron bo'lib:

— Nega bu qush buncha qimmat? — deb so'rabdi.

— Bu qush gapiradi, — deyishibdi.

Afandi darrov uyiga borib, bir hinduni (kurkani) ko'tarib kelibdi va 100 tilloga sotishini aytibdi. Odamlar:

— Afandi, oddiy hindu ham shuncha bo'ladimi? To'ti-ku gapirgani uchun qimmat, bu nima qiladi? — deyishsa, Afandi:

— U gapirsa, bunisi o'ylaydi! — deb javob bergan ekan.²

Afandi obrazi — bu "shirin mag'izli achchiq haqiqat". U kuldirib turib o'ylantiradi.

Latifa elementlaridan Rabg'uziyning "Qissai Rabg'uziy" va Alisher Navoiyning "Xamsa" asarlarida mahorat bilan foydalanilgan. O'zbek xalq latifalarini dastlab 1941-yilda Sharif Rizo to'plab nashr ettirgan. Janrning rivojlanishida Hodi Zarifov kabi olimlarning xizmati katta.

Jahon miqyosida latifa janri turli nomlar va qahramonlar bilan mashhur. bosqichlarda o'ziga xos estetik shakllarda ifodalangan. Qadimgi yunon adabiyotida Aristofan komediyalarida ijtimoiy hayotdagi nodonlik, siyosiy nochorlik va ma'naviy tanazzul kulgi orqali tanqid qilinadi. Rim adabiyotida esa satira janri —

² Nasriddin Afandi latifalari (to'plam). — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2010.



masalan, Yuvanal va Horats asarlari– yumorni aniq ijtimoiy va axloqiy tanqid shakliga aylantirgan. O'rta asrlarda esa yumor diniy dunyoqarash bilan chegaralangan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodida, karnaval madaniyatida va she'riyatda u o'z ifodasini topishda davom etgan.Uyg'onish davridan boshlab esa yumor ijtimoiysiyosiy va ma'rifiy g'oyalarni ilgari surish vositasiga aylangan.Bir xil mazmunda bo'lsa-da, latifa qahramonlari har bir xalqning o'ziga xos timsoliga aylangan:Tojiklarda: Mushfiqiy Turkmanlarda: Mirali ,Qirg'iz va qozoqlarda: Aldarko'sa.Yevropada sharq latifalari ilk o'rta asrlardayoq ma'lum bo'lgan va turli tantanalarda ijro etilgan .

Jahon xalqlarida latifa (anekdot) nafaqat kuldirish, balki ijtimoiy ziddiyatlarni va insoniy nuqsonlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rsatib berish vazifasini ham bajaradi.

Latifalar mazmunan bir necha turga bo'linadi:

Maishiy latifalar: Kundalik turmush muammolari haqida.

Ijtimoiy-siyosiy latifalar: Davrning nuqsonlari va amaldorlar ustidan kulish.

Bolalar latifalari: Soddaroq kulgiga asoslangan namunalar.

Jahon va o'zbek latifalarining eng muhim o'xshashligi — ular jamiyatdagi kamchiliklarni kulgi va kinoya orqali fosh etishga xizmat qiladi. Har ikkala an'anada ham:nodonlik tanqid qilinadi,adolatsizlik ochib beriladi,inson xarakteri tahlil qilinadi.Har ikkala an'ana ham dastlab og'zaki shaklda paydo bo'lgan va keyinchalik yozma adabiyotga kirib kelgan.O'zbek latifalarida asosiy qahramon — Nasriddin Afandi bo'lib, u dono, topqir va kinoyali obraz sifatida namoyon bo'lsa,jahon latifalarida esa turli obrazlar mavjud: Joha (arab), Till Eulenspiegel (nemis), Petrushka (rus) va boshqalar.O'zbek latifalarida sharqona odob, hurmat, ustozshogird munosabatlari kuchli seziladi.Jahon latifalarida esa ba'zan ochiqroq tanqid, satira va keskinroq hazil uchraydi.

Xulosa qilib aytganda,jahon va o'zbek latifalari bir-biriga juda yaqin janrlar bo'lib, ularni birlashtiruvchi asosiy jihat — kulgi orqali tarbiya va tanqid qilishdir. Farqli jihatlar esa asosan milliy qahramonlar, madaniy muhit va ifoda uslubida



namoyon bo‘ladi. Har ikkala an’ana ham insonni o‘ylashga, jamiyatni tahlil qilishga undovchi muhim badiiy vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To‘rayev B. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
2. Mirzaev T. O‘zbek folklori va uning janrlari. – Toshkent: Fan, 2012.
3. Qo‘chqorov A. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Sharq, 2017.
4. Nasriddin Afandi latifalari (to‘plam). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2010.
5. Chexov A.P. Qisqa hikoyalar. – Moskva: Badiiy adabiyot, 2005.
6. Bokkachcho J. Dekameron. – Moskva: Eksmo, 2008.
7. Jahon folklori (latifa va hajviy hikoyalar to‘plami). – Toshkent: Sharq, 2018.